

YANGI O‘ZBEKISTONDA NUFUZLI XALQARO FAN OLIMPIADALARI G‘OLIBLARINI RAG‘BATLANTIRISH TIZIMINING TAKOMILLASHTIRILISHI HAMDA ERISHILGAN NATIJALAR

Abdulloyev Sherqo‘zi Axmatboboyevich,
SamDU o‘qituvchisi, sheriabdullayev1@gmail.com +99893 991 91 19

Annotatsiya: O‘zbekistonda nufuzli xalqaro fan olimpiadalarida g‘olib bo‘lgan o‘quvchilar va ularning o‘qituvchilarini rag‘batlantirish tizimi ilm-fan va ta’lim darajasini oshirish maqsadlarni ko‘zda tutadi.

Ushbu maqolada xalqaro olimpiadalar va ularning turlari, o‘zbekistonlik o‘quvchilarning 2019-yilga qadar nufuzli xalqaro fan olimpiadalaridagi ishtiroki natijalari, shuningdek, so‘nggi yillarda ta’lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan e’tibor, xususan, 2019-yildan so‘ng mamalakatda nufuzli xalqaro fan olimpiadalari g‘oliblari hamda ularning ustozlarini munosib taqdirlash mexanizmining takomillashtirilishi hamda erishilgan yutuqlar Markaziy Osiyo davlatlari o‘quvchilarining natijalari bilan qiyosiy solishtirilgan holda bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: nufuzli xalqaro olimpiadalar, moddiy rag‘batlantirish, PQ-4306, Xalqaro Matematika Olimpiadasi (International Mathematical Olympiad, IMO)

IMPROVEMENT OF THE INCENTIVE SYSTEM FOR WINNERS OF PRESTIGIOUS INTERNATIONAL SCIENCE OLYMPIADS IN NEW UZBEKISTAN AND ACHIEVED RESULTS

Abstract: The system of incentives for students and their teachers who have won prestigious international subject Olympiads in Uzbekistan aims to raise the level of science and education.

This article describes international Olympiads and their types, the results of Uzbek students' participation in prestigious international subject Olympiads until 2019, as well as the attention paid to the development of the education system in recent years, in particular, the improvement of the mechanism for decent awarding of winners of prestigious international subject Olympiads and their teachers in the country after 2019, and the achieved achievements in comparison with the results of students from Central Asian countries.

Keywords: prestigious international Olympiads, material incentives, PQ-4306, International Mathematical Olympiad (IMO)

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СТИМУЛИРОВАНИЯ ПОБЕДИТЕЛЕЙ ПРЕСТИЖНЫХ МЕЖДУНАРОДНЫХ НАУЧНЫХ ОЛИМПИАД В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ И ДОСТИГНУТЫЕ РЕЗУЛЬТАТЫ

Аннотация: Система поощрения учащихся и их учителей, победивших на престижных международных предметных олимпиадах в Узбекистане, направлена на повышение уровня науки и образования.

В данной статье описываются международные олимпиады и их виды, результаты участия узбекских учащихся в престижных международных

предметных олимпиадах до 2019 года, а также внимание, уделяемое развитию системы образования в последние годы, в частности, совершенствование механизма достойного поощрения победителей престижных международных предметных олимпиад и их учителей в стране после 2019 года, а также достигнутые успехи в сравнении с результатами учащихся стран Центральной Азии.

Ключевые слова: престижные международные олимпиады, материальное стимулирование, PQ-4306, Международная математическая олимпиада (International Mathematical Olympiad, IMO)

Xalqaro fan olimpiadalarini 2 turga ajratish mumkin. Birinchisi, har bir mamlakatdan faqat bitta terma jamoa ishtirok etadigan xalqaro olimpiadalar, ikkinchisi esa har bir mamlakatdan bir nechta jamoa ishtirok etishi mumkin bo'lgan xalqaro olimpiadalardir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi "Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4306-son qaroriga ko'ra birinchi toifadagilari nufuzli xalqaro olimpiadalar, ikkinchi toifadagilari esa mintaqaviy xalqaro olimpiadalar sifatida e'tirof etiladi [1]. Quyida nufuzli xalqaro fan olimpiadalari ro'yxati keltiriladi:

T/r	Fan olimpiadasi	Tashkil etilgan yili	O'zbekiston ishtiroki
1.	Xalqaro Matematika Olimpiadasi (International Mathematical Olympiad, IMO)	1959-yilda Ruminiya	1997-yildan boshlab
2.	Xalqaro fizika olimpiadasi (International Physics Olympiad, IPhO)	1967-yilda Polsha	2016-yildan boshlab
3.	Xalqaro kimyo olimpiadasi (International Chemistry Olympiad, IChO)	1968-yilda Chexoslovakiya	2013-yildan buyon
4.	Xalqaro informatika olimpiadasi (International Olympiad in Informatics, IOI)	1989-yil Bolgariya [2].	2013-yildan buyon [3]
5.	Xalqaro biologiya olimpiadasi (International Biology Olympiad, IBO)	1990-yil Chexiya	1997 yildan buyon [4]

O'zbekiston 1997-yildan boshlab nufuzli xalqaro fan olimpiadalarida mustaqil davlat sifatida ishtirok etib kelmoqda. Ammo, 2019- yilga qadar yurtimizda nufuzli xalqaro va respublika fan olimpiadalari g'oliblari va ularning ustozlari munosib taqdirlanmas edi [5]. Bu esa, o'z navbatida, mazkur sohadagi ishlar natijadorligiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatdi. Masalan, informatika va axborot texnologiyalari fanidan nufuzli xalqaro olimpiadada terma jamoamiz 2015-yilgacha ishtirok etmagan va 2019-yilgacha birorta medalni qo'lga kiritmagan. Ta'kidlash joizki, Qozog'iston terma jamoasi 2019-yilgacha mazkur fan olimpiadasida 52, Tojikiston terma jamaosi

esa 7 ta medalni qo‘lga kiritgan. Shuningdek, 2019-yilga qadar fizika va matematika fanlaridan o‘tkazib kelingan xalqaro olimpiadalarda ham O‘zbekiston yoshlarining ko‘rsatkichlari qo‘shni davlatlar (Qozog‘iston, Tojikiston) va xorijiy mamlakatlar ko‘rsatkichlaridan ancha past edi [6].

Markaziy Osiyo davlatlarining nufuzli xalqaro fan olimpiadalaridagi ishtiroki tahlili (1991-2018-yillar misolida)

№	DAVLAT NOMI	EGALLAGAN MEDAL TURI			JAMI
		OLTIN	KUMUSH	BRONZA	
1.	QOZOG‘ISTON	39	118	201	358
2.	TURKMANISTON	5	16	90	111
3.	TOJIKISTON	0	14	57	71
4.	O‘ZBEKISTON	2	12	46	60
5.	QIRG‘IZISTON	1	8	46	55

2019-yilga qadar o‘zbekistonlik o‘quvchilar nufuzli xalqaro fan olimpiadalaridagi natijalari bo‘yicha Markaziy Osiyoda Qozog‘iston, Turkmaniston va Tojikiston kabi davlatlardan ortda qolgan. Bunga, birinchidan, O‘zbekistonning nufuzli xalqaro olimpiadalarga Markaziy Osiyoning qolgan davlatlariga nisbatan kechroq jalb etilishi, ikkinchidan esa, mamlakatda xalqaro olimpiadalar g‘oliblarini moddiy va ma‘naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash tizimining samarali tashkil etilmagani sabab bo‘ldi.

Yangi O‘zbekistonda ushbu sohadagi ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha davlat rahbari va hukumat tomonidan keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Xususan, 2019-yil 3-mayda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4306-son qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga asosan iqtidorli o‘quvchilar bilan tizimli ishlashni tashkil etish hamda ularni xalqaro nufuzli olimpiadalarga munosib tayyorlash maqsadida Xalq ta’limi vazirligi tizimida 14 shtat birligidan iborat Fan olimpiadalar bo‘yicha iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlash departamenti tashkil etildi. Qarorga asosan xalqaro olimpiada g‘oliblari, ularning o‘qituvchilarini rag‘batlantirishning yangi mexanizmlari ishlab chiqildi. Qaror bilan nufuzli xalqaro matematika, fizika, kimyo, biologiya va informatika olimpiadalar g‘oliblari davlat oliy ta’lim muassasalariga test sinovsiz va qo‘shimcha imtihonsiz qabul qilinishi belgilandi. Shuningdek, xalqaro olimpiadalar g‘oliblari va ularning o‘qituvchilari bir martalik pul mukofotlari bilan taqdirlanishi belgilab qo‘yildi. Unga ko‘ra, nufuzli xalqaro olimpiadalar g‘oliblariga bazaviy hisoblash miqdorining 1-o‘rin (oltin medal) uchun – 500, o‘qituvchisiga – 450 baravari; 2-o‘rin (kumush medal) uchun – 300, o‘qituvchisiga – 250 baravari; 3-o‘rin (bronza) uchun – 200, o‘qituvchisiga – 150 baravari miqdorida bir martalik pul mukofoti berish tartibi belgilandi [7].

Ushbu qarorlar tezda o‘z samarasini berdi. Yoshlarimiz nufuzli xalqaro fan olimpiadalarida qisqa davr (2019-2024-yillar) oralig‘ida 7 ta oltin 17 ta kumush hamda 30 ta bronza, jami 54 ta medalni qo‘lga kiritdilar [8].

Shunisi ahamiyatliki, 2023-2024-o'quv yili davomida xalqaro va mintaqaviy fan olimpiadalarida g'oliblikni qo'lga kiritgan o'quvchilar va ularning ustozlari hamda asosiy olimpiadalarning viloyat va respublika bosqichlari g'oliblarini taqdirlash uchun davlat byudjetidan jami 9 mlrd. so'm yo'naltirildi. Bu ko'rsatkich 2019-yilgi 780 mln so'mdan qariyb 11,5 barobarga ko'pdir.

Bu boradagi islohotlar keyingi yillarda ham davom ettirildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-maydagi tegishli Farmoni bilan nufuzli xalqaro olimpiadalar, xalqaro olimpiadalar va mintaqaviy xalqaro olimpiadalar g'oliblari, ularning o'qituvchilari va terma jamoalar rahbarlariga to'lanadigan bir martalik pul mukofotlari miqdoriga o'zgartirishlar kiritildi. Unga ko'ra: nufuzli xalqaro olimpiadada: 1-o'rin (oltin medal) egallagan o'quvchilarga — BHMning 2 500 baravari (hozirgi vaqtda 1 030 000 000 so'm) miqdorida; — ularning o'qituvchilariga — BHMning 450 baravari (hozirgi vaqtda 185 400 000 so'm) miqdorida; — terma jamoa rahbariga — BHMning 35 baravari (hozirgi vaqtda 14 420 000 so'm) miqdorida; 2-o'rin (kumush medal) egallagan o'quvchilarga — BHMning 1 500 baravari (hozirgi vaqtda 618 000 000 so'm) miqdorida; — ularning o'qituvchilariga — BHMning 250 baravari (hozirgi vaqtda 103 000 000 so'm) miqdorida; — terma jamoa rahbariga — BHMning 25 baravari (hozirgi vaqtda 10 300 000 so'm) miqdorida; 3-o'rin (bronza medal) egallagan o'quvchilarga — BHMning 1 000 baravari (hozirgi vaqtda 412 000 000 so'm) miqdorida; — ularning o'qituvchilariga — BHMning 150 baravari (hozirgi vaqtda 61 800 000 so'm) miqdorida; — terma jamoa rahbariga — BHMning 15 baravari (hozirgi vaqtda 6 180 000 so'm) miqdorida [9] bir martalik rag'batlantirish belgilandi.

Bundan tashqari, 2025-yildan boshlab o'quvchilarni xalqaro fan olimpiadalariga munosib tayyorgarlik ko'rishlarini ta'minlash maqsadida xorijlik mutaxassislarni jalb etish va terma jamoaga nomzodlarni xorijdagi qo'shma o'quv-yig'inida ishtirok etishlariga alohida urg'u berildi. Xususan, 2025-yil mart oyida Fan olimpiadalari markazi hamda Raqamli texnologiyalar vazirligi tashabbusi bilan xorijiy trener o'qituvchi ishtirokida informatika fanidan intensiv mashg'ulotlar o'tkazildi. Shuningdek, 2025-yil 9-iyul — 25-iyul kunlari informatika fanidan O'zbekiston terma jamoasi a'zolari Turkiyadagi xalqaro qo'shma o'quv-yig'inida ishtirok etdi. Ushbu o'quv-yig'in mashg'ulotlari informatika fanidan xalqaro olimpiadalarga tayyorgarlik jarayonining muhim bosqichlaridan biri bo'lib, ishtirokchilar uchun nazariy bilimlarini chuqurlashtirish va amaliy tajriba o'ttirish imkoniyatini yaratadi.

Buning samarasi o'laroq, 2025-yilgi nufuzli xalqaro fan olimpiadalarda informatika, matematika hamda kimyo fanlaridan terma jamoamiz a'zolari tarixiy natijalarga erishdilar. Xususan 2025-yilning 27-iyulidan 3-avgustiga qadar Boliviyaning Sukre shahrida o'tkazilgan 37-Xalqaro informatika olimpiadasi (International Olympiad in Informatics — IOI 2025)da ishtirok etgan 90 dan ortiq mamlakatning eng iqtidorli yosh dasturchilari orasida O'zbekiston terma jamoasi vakillari 1 ta kumush hamda bronza, shuningdek, Avstraliyada bo'lib o'tgan 66-Xalqaro Matematika Olimpiadasida 4 ta kumush, 1 ta bronza jami — 5 ta medal,

Birlashgan Arab Amirliklarining Dubay shahrida o‘tkazilgan 57-Xalqaro Kimyo Olimpiadasida (IChO 2025) 2 ta oltin, 2 ta kumush, jami — 4 ta medalni qo‘lga kiritib, o‘z ishtiroki tarixidagi eng yuqori ko‘rsatkichlarni qayd etdi.

Markaziy Osiyo davlatlarining nufuzli xalqaro fan olimpiadalaridagi ishtiroki tahlili (2019-2025-yillar misolida)

№	DAVLAT NOMI	EGALLAGAN MEDAL TURI			JAMI
		OLTIN	KUMUSH	BRONZA	
1.	QOZOG‘ISTON	9	68	64	141
2.	O‘ZBEKISTON	9	24	34	67
3.	QIRG‘IZISTON	1	9	40	50
4.	TURKMANISTON	1	17	22	40
5.	TOJIKISTON	1	7	19	27

Xulosa qilib aytish mumkinki, Yangi O‘zbekistonda ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar natijasida maktab o‘quvchilarining nufuzli xalqaro fan olimpiadalaridagi yutuqlari oldingi yillarga nisbatan sezilarli miqdorda ortdi. Xususan, 1991-2019-yillar davomida o‘zbekistonlik o‘quvchilar nufuzli xalqaro olimpiadalarda jami 60 ta medal (faqatgina 2 ta oltin medal!)ni qo‘lga kiritgan bo‘lsalar, xalqaro olimpiadalar g‘oliblarini moddiy va ma’naviy jihatdan rag‘batlantirish mexanizmining samarali tashkil etilishi natijasida yoshlarimiz yetti yillik (2019-2025-y.y) qisqa davr oralig‘ida 9 ta oltin, 24 ta kumush hamda 34 ta bronza – jami 67 ta medalni sohibiga aylandilar.

Biroq, bu borada ham hali hamon egallanishi lozim bo‘lgan bir qator marralar mavjud. Jumladan, nufuzli xalqaro matematika, fizika hamda informatika olimpiadalarida o‘zbekistonlik o‘quvchilar hozirgacha oltin medalga ega chiqmadilar.

FOYDALANILGAN MANBALAR:

1. “Ma’rifat” gazetasi. 2022-yil 12-oktabr № 40 (9417)
2. https://t.me/Fan_olimpiadalari_M. 2025-yil 10-avgustda murojaat etilgan
3. “Ma’rifat” gazetasi. 2022-yil 12-oktabr № 40 (9417)
4. <https://kun.uz/98914359?q=%2Fuz%2F98914359>
5. Sh.Mirziyoyev. “Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik”. T. “O‘zbekiston”, 2023. B-80
6. “Ma’rifat” gazetasi. 2019-yil 31-iyul, № 59 (9228)
7. “Ma’rifat” gazetasi. 2019-yil 4-may, shanba № 34(9203) 2-bet
8. <https://olympiad.uzedu.uz>
9. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 20.05.2025-y., 06/25/86/0456-son
10. https://t.me/Fan_olimpiadalari_M. 2025-yil 12-avgustda murojaat etilgan